SADOQAT VA VAFO TUSHUNCHALARI TALQINI

Zilola Egamberdiyeva Alimbayevna,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
Elektron pochta: egamberdiyevazilola42@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20150275

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “sadoqat” va “vafo” tushunchalarining ma’naviy-axloqiy mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda Sharq tafakkuridagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu ikki tushuncha oddiy sinonim sifatida emas, balki inson kamolotini belgilovchi ikki bosqichli axloqiy tizim sifatida talqin etiladi. Sadoqat inson qalbidagi rostlik, niyat pokligi va e’tiqoddagi barqarorlikni ifodalasa, vafo ana shu ichki holatning va’da, ahd, munosabat va ijtimoiy mas’uliyatda namoyon bo‘lishidir. Maqolada Qur’oni Karim, hadis manbalari, arab lug‘atlari, mumtoz adabiyot va tasavvufiy qarashlar asosida sadoqat va vafoning shaxsiy kamolot hamda ijtimoiy ishonchni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sadoqat, vafo, sidq, ahd, rostlik, va’da, ishonch, axloq, ma’naviyat, Sharq tafakkuri, tasavvuf, so‘z va amal birligi.*

Аннотация. *В статье анализируются духовно-нравственное содержание понятий «преданность» и «верность», их взаимосвязь, а также их место в восточной системе мышления. В исследовании эти два понятия рассматриваются не как простые синонимы, а как двухуровневая нравственная система, определяющая духовное совершенствование человека. Если преданность выражает внутреннюю честность человека, чистоту намерений и устойчивость убеждений, то верность является проявлением этого внутреннего состояния в обещании, обете, отношениях и социальной ответственности. В статье на основе Корана, хадисных источников, арабских словарей, классической литературы и суфийских взглядов раскрывается значение преданности и верности в личностном совершенствовании человека и укреплении общественного доверия.*

Ключевые слова: *преданность, верность, сидк, обет, честность, обещание, доверие, нравственность, духовность, восточное мышление, суфизм, единство слова и дела.*

Annotation. *The article analyzes the spiritual and moral content of the concepts of "loyalty" and "faithfulness," their interconnection, as well as their place in the Eastern system of thought. In the study, these two concepts are considered not as simple synonyms, but as a two-level moral system that determines the spiritual perfection of a person. If loyalty expresses a person's inner honesty, purity of intent, and firmness of conviction, then loyalty is a manifestation of this inner state in promises, vows, relationships, and social responsibility. The article, based on the Quran, hadith sources, Arabic dictionaries, classical literature, and Sufi views, reveals the significance of devotion and loyalty in the personal perfection of a person and the strengthening of social trust.*

Keywords: *loyalty, faithfulness, sincerity, honesty, promise, trust, morality, spirituality, Eastern thinking, Sufism, unity of word and deed.*

Kirish. “Sadoqat va vafo” so‘zlari birga qo‘llanganda u oddiy sinonim takror emas, balki ma’no kuchayishi va estetik yaxlitlik hosil qiluvchi badiiy juftlikga aylanadi. Bu ikki tushuncha Sharq tafakkurida juda yaqin bo‘lsa-da, ular bir-birini to‘ldirib, insoniy fazilatning ikki qirrasini ochib beradi. Avvalo, sadoqat ko‘proq

ichki barqarorlik, rostlik va imoniy-axloqiy mustahkamlikni bildiradi. U insonning qalbidagi sodiqlik holatini, ya'ni niyat va e'tiqodning tozaligini ifodalaydi. Vafo esa shu ichki holatning tashqi ko'rinishi–va'da, ahd va munosabatlarda o'zini namoyon qiluvchi amaliy sodiqlikdir. Ya'ni sadoqat ichki ildiz bo'lsa, vafo uning tashqi mevasi hisoblanadi.

"Sadoqat" va "vafo"ning birgalikda qo'llanishi Sharq badiiy tafakkurida tasodifiy emas, balki semantik kuchaytirish, ma'no qatlamini chuqurlashtirish va estetik idealni mukammallashtirishga xizmat qiluvchi poetik zaruratdir. Bu ikki tushuncha alohida ishlatilganda ham mustaqil ma'no bera oladi, biroq ular yonma-yon kelganda insoniy komillikning to'liq modeli hosil bo'ladi.

Lingvistik jihatdan qaralganda, "sadoqat" (ichki rostlik, qalbning barqarorligi) va "vafo" (tashqi amal, va'da va munosabatlarda sodiqlik) bir ildizli ma'naviy maydonga tegishli bo'lsa-da, ular semantik jihatdan ikki turli qatlamni ifodalaydi. Ya'ni:

sadoqat–ichki (intrinsik) holat,

vafo–tashqi (ekstrinsik) namoyon bo'lish.

Shu sababli ularni ajratib qo'yish ma'noni parchalab yuboradi: sadoqat bo'lsa-yu vafo bo'lmasa, u ichki hissiy holatga aylanib qoladi; vafo bo'lsa-yu sadoqat bo'lmasa, u rasmiy va yuzaki harakat darajasiga tushib qoladi. Demak, bu ikki tushuncha o'zaro to'ldiruvchi (complementary) juftlikdir. Badiiy-estetik nuqtai nazardan esa Sharq adabiyotida bunday juftliklar parallelizm, sinonimik takror va ma'no kuchaytirish (ta'kid san'ati) vazifasini bajaradi. Mumtoz uslubda bir tushunchani ikkinchisi bilan yonma-yon qo'yish orqali ma'no "kengaytiriladi", hissiy ta'sir kuchaytiriladi va o'quvchida ideal obraz yanada aniqroq shakllanadi.

"Sadoqat va vafo" birikmasi aynan shu jihatdan:

1) *ichki dunyo (qalb),*
2) *tashqi amal (ijtimoiy munosabat),*
3) *axloqiy barqarorlik (fazilat)*

ammo birgalikda qo'llanganda, bu ikki tushuncha insoniy komillikning sinteziga aylanadi. Shu bois Sharq mumtoz uslubida, xususan Navoiy an'anasida, bunday juftliklar ko'p uchraydi: ular nafaqat til hodisasi, balki axloqiy-falsafiy idealni ifodalash usulidir.

Umuman olganda, "sadoqat va vafo" birikmasi alohida yurmaydi, chunki ularning vazifasi bir-birini takrorlash emas, balki insonning ichki haqiqatini tashqi amalda to'liq namoyon etuvchi yagona ma'naviy butunlikni yaratishdir. Shu jihatdan bu juftlik Sharq badiiy tafakkurida oddiy sinonim emas, balki komillikni ifodalovchi estetik-falsafiy formula hisoblanadi. Sadoqat va vafo integrativ falsafiy konsepti–

insonning ichki ma’naviy rostligi (qalb pokligi, niyat va e’tiqoddagi barqarorlik) bilan tashqi amaliy sodiqligi (va’da, ahd va ijtimoiy munosabatlardagi mas’uliyatli va to‘liq ijro) o‘rtasidagi uzviy uyg‘unlikni ifodalovchi, shaxsiy axloqiy komillik hamda ijtimoiy ishonch tizimining shakllanishini ta’minlovchi yaxlit falsafiy-etik kategoriya hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Islom tafakkuri va Sharq adabiy merosida sadoqat (صدق / sidq) va sodiqlik (صادقون / sodiqūn) inson ma’naviy kamolotining markaziy tushunchalaridan biridir. Bu tushunchalar faqat axloqiy belgilar sifatida emas, balki insonning imoni, niyati, so‘zi va amali o‘rtasidagi mutlaq uyg‘unlikni ifodalovchi chuqur falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Arab tilida “sidq” lafzining ifodasi

Arab tilida “sidq” (قدص) quyidagi ma’nolarni anglatadi:rostlik,haqiqatga muvofiqlik,qalb va til uyg‘unligi. Shu ildizdan kelib chiqqan asosiy so‘zlar esa ushbu ma’no nozikliklarini tashkil etadi. Sodiq (قداص)–rostgo‘y inson. Sodiqun (نوقداص)–rostgo‘ylar jamoasi. Sadoqat (قدص / ءافو)–vafodorlik va sodiqlik holati “Rag‘ib al-Isfahoniy” o‘zining “Mufradot alfaz al-Qur’on” asarida sidqni “haqiqatga to‘liq mos keluvchi so‘z va amal” [1] deb izohlaydi. *Sidq* tushunchasi islom axloqida insonning rostgo‘ylik sifati bilan bog‘liq bo‘lib, u nafaqat so‘zda, balki amal va qalb holatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu tushuncha odatda uch bosqichda tahlil qilinadi: qavl sidqi, amal sidqi va hol sidqi.

Qavl sidqi – bu so‘zda rostlikni anglatadi. Ya’ni inson o‘z nutqida haqiqatga amal qilishi, yolg‘ondan tiyilishi va aytgan gapi bilan voqelik o‘rtasida muvofiqlik bo‘lishi kerak. Bunday rostgo‘ylik jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi va insonning axloqiy qiyofasini belgilaydi.

Amal sidqi esa insonning faqat so‘zda emas, balki o‘z harakat va faoliyatida ham rost bo‘lishini anglatadi. Bu yerda so‘z bilan amal birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar inson rost gapirsa-yu, ammo amalda buni tasdiqlamasa, uning sidqi to‘liq bo‘lmaydi. Shuning uchun amal sidqi qavl sidqiga nisbatan yuqoriroq bosqich hisoblanadi.

Hol sidqi–sidqning eng yuqori darajasi bo‘lib, insonning ichki dunyosi, qalbi va niyatining pokligi bilan bog‘liq. Bu holatda inson faqat tashqi harakatlarida emas, balki qalbida ham xolis va samimiy bo‘ladi. Unda riyo, manfaatparastlik yoki ikkiyuzlamachilik bo‘lmaydi. Shu bois hol sidqi inson kamolotining eng oliy ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Demak sadoqat tushunchasi bosqichma-bosqich rivojlanadi: avvalo so‘zda, so‘ng amalda, nihoyat qalbda namoyon bo‘ladi. Haqiqiy rostgo‘ylik esa ana shu uch jihatning uyg‘unligi orqali yuzaga chiqadi. Qur’oni Karimda “sadoqat” va “vafo”

so‘zlari aynan ishlatilmagan, biroq uning o‘zagidan o‘sib chiqqan sodiqun,musoddiqan,musoddiq, sodaqotun kabi shakllari juda ko‘p uchraydi. Arab tili mutaxassisi A.Atayev qarashlariga ko'ra: “sodiqun” (صادقون)–ya’ni “sodiqlar” rostgo‘ylar, haqiqat tarafdorlari sifatida ko‘plab oyatlarda zikr etilgan. Bu tushuncha insonning imon darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida talqin qilinadi.*“Ey iymon keltirganlar! Allohdan qo‘rqing va sodiqlar bilan birga bo‘ling”[2]. (Tavba,9:119)*Bu oyat sodiqlik jamiyatda ma’naviy birlik va to‘g‘rilikning asosi ekanini ko‘rsatadi. Yana bir muhim oyatda esa bunday izohlangan “Sodiq erkaklar va sodiq ayollar...”[3] (Ahzob, 33:35) Mazkur oyat sadoqatning jins, maqom yoki ijtimoiy holatga bog‘liq emasligini bildiradi. Va yana shu oyatda “Sodiqlar orasidan va’da qilganlarini Allohga sodiq bo‘lganlar bor” [4]. (Ahzob, 33:23)Hadislarda sadoqat tushunchasining quyidagicha ifoda etilganiga guvoh bo‘lamiz. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qilganlar: “Sadoqat insonni yaxshilikka olib boradi, yaxshilik esa jannatga eltadi” [5]. Yana bir hadisda: “Sizlar sadoqni lozim tuting, chunki sidq insonni Allohga yaqinlashtiradi” [6]. Yuqoridagi hadislarga ko‘ra sadoqat: imonning barqarorligini ta’minlaydi. Isonning o‘zaro jamiyatda ishonch tizimini yaratib, axloqiy buzilishlarning oldini oladi. Imom Al-G‘azzoliy “Ihyo ulumiddin” asarida sadoqatni quyidagicha ta’riflaydi: *sadoqat–qalb, til va amal uyg‘unligi bo‘lib, u insonni riyodan (soxtalikdan) saqlaydi.* [7] Ibn Taymiyyah esa “Al-īmānu aṣluhu fī al-qalb, va hua qavl va ‘amal, va aṣluhu aṣ-ṣidq” [8]. Imonning asosi qalbdadir; u so‘z va amaldir, va uning asosi–sidq (rostlik, sadoqat)dir.deb hisoblaydi. Alisher Navoiy ijodida sadoqat insoniy kamolotning eng yuksak mezoni sifatida yoritiladi. U “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarida rostgo‘ylik va vafodorlikni jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida tasvirlaydi. Navoiy fikricha: sadoqat–do‘stlikning asosi hisoblanadi, kishilar o‘rtasida haqiqiy munosabatlar sadoqat tushunchasi orqali bog’lanadi. Jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi, natijada axloqiy poklikni shakllantiradi.Yolg‘on–insoniylikni yemiruvchi illat insonni ma’naviy tanazzulga yetaklaydi. Uning ijodida sadoqat nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy zarurat sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy ijodida esa sadoqat insoniy kamolot va jamiyat barqarorligining asosiy mezoni sifatida yuksak darajada tasvirlangan. Lekin sidq (rostgo‘ylik) haqida asarda mashhur bayt bor:

“Sidq qila ko‘ngulni qilg‘il muqarrar,

Yolg‘on so‘zdin el ko‘ngli bo‘lur beqaror”[9].

Demak, sidq faqat axloqiy tushuncha emas, balki insonning ichki va tashqi dunyosini birlashtiruvchi ilohiy-ma’naviy qadriyatdir.

Arab tilidagi “وَفَى” (vafā– vafo qilmoq) va “وَفَاء” (vafā’– vafo, sadoqat, to‘liq bajarish) tushunchalari semantik jihatdan keng qamrovli bo‘lib, ular faqat axloqiy sadoqat ma’nosi bilan cheklanmaydi. Ushbu leksik ildiz (w-f-y) atrofida shakllangan ma’nolarni birlashtiruvchi markaziy sema–“to‘liqlik, mukammallik va majburiyatni nuqsonsiz ado etish” hisoblanadi.[10] Dastlab, “vafā”ning asosiy leksik ma’nosi biror ish, majburiyat yoki va’dani oxiriga yetkazish, uni to‘liq va kam-ko‘stsiz bajarishni anglatadi. Bu yerda nafaqat harakatning sodir etilishi, balki uning normativ jihatdan mukammal bajarilishi ham nazarda tutiladi.[11] Shu ma’noda, shaxs o‘z zimmasiga olgan ahd, va’da yoki majburiyatni buzmasdan va kamaytirmasdan amalga oshiradi. Mazkur markaziy semadan kelib chiqib, “vafā/vafā’” tushunchasi bir nechta semantik yo‘nalishlarda rivojlanadi. Birinchidan, axloqiy-huquqiy sohada u va’daga sodiqlik, ahdni buzmaslik va qarzni to‘liq ado etish kabi ma’nolarni ifodalaydi. [12] Ikkinchidan, axloqiy sifat (virtus) sifatida u insonning sadoqat, ixlos va ishonchlilik kabi barqaror fazilatlarini bildiradi.[13] Uchinchi yo‘nalishda esa, o‘lchov va miqdor semantikasi doirasida “vafā” tenglik, moslik va yetarlilik ma’nolarini ifodalaydi.[14] To‘rtinchidan, tabiiy jarayonlar kontekstida u yetilish, to‘liq shakllanish va mukammallashish ma’nolarida qo‘llanadi. Shu sababli, “vafā” tushunchasini faqat “sadoqat” ma’nosi bilan cheklash ilmiy jihatdan to‘liq emas. Uning semantik maydoni keng bo‘lib, u to‘liqlik (completeness), moslik (adequacy), mukammallik (perfection) va normativ bajarish (fulfilment) kabi ko‘p qatlamli ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari turkcha lug‘atlarda ham vafo so‘zining izohlari mavjud ekan. Suleyman Uludagning **“Tasavvuf Terimleri Sözlüğü” [15] lug**‘atida esa vafo quyidagicha talqin qilingan:Vafā (Vafodorlik) Bog‘liqlik (tasavvufda):

a) Ruhni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, aqlni dunyo tashvishlari bilan band qilmaslik.(Sulemi,88.)Ya’ni so‘zda samimiy bo‘lish, ruhning halollik va rostgo‘ylik ichida bo‘lishi. (Sulemi, 39.);

b) Azalda, “bezm-i elest”da Allohga berilgan so‘zga, ahdga sodiq qolish;

c) Insonlarga berilgan ahdni saqlash (ahdga vafodorlik);

d) Azaliy ilohiy inoyat. Qur’onda.

“Menga bergan ahdingizga vafo qiling, Men ham sizga bergan ahdimga vafo qilaman.” (Qur'an, **Baqara [16] 2:40**)Inson va Alloh o‘rtasida **o‘zaro ahd (kelishuv)** mavjud. Insonning Allohga vafo qilishi– Allohning rahmati va va’dasiga erishish sharti ekaniga ishora qiladi.Muallif shu o‘rinda Fuzuliydan ham qatra keltiradi.(Bu yerda ishqiy-axloqiy vafo)

Yâr kılmazsa bana cevr ü cefadan gayrı

Ben ona eylemezem mihr u vefadan gayrı (Fuzûlî)

Mazmuni:

"Yor qilmasa menga jafodan boshqa narsa, Men ham unga mehr va vafodan boshqa narsa qilmayman."

Bi-vefa: Vefasız, sadakati olmayan tarjimasi:*vafosiz, sadoqatsiz*

Bu yerda vafo axloqiy nuqson va ishonchsizlik belgisi sifatida kelgan.

Tasavvufda "bî-vefâ" so'zi nafsga ergashish, ahdni buzish kabi ma'no qirralarini tashkil etadi. Natijada "vafā" so'zi ko'p qatlamli semantik strukturaga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, u insonning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy faoliyatida majburiyatlarni to'liq, mukammal va vijdonan bajarish holatini ifodalaydi. [17]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lingvokulturologik, semantik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. "Sadoqat" va "vafo" tushunchalarining ma'no qatlamlari Qur'oni Karim oyatlari, hadis manbalari, arab lug'atlari hamda Sharq mumtoz adabiyoti asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ushbu tushunchalarning semantik yaqinligi, o'zaro farqli jihatlari va ularning ma'naviy-estetik vazifalari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Shuningdek, Alisher Navoiy, Fuzuliy va tasavvuf namoyandalarining qarashlari asosida "sadoqat" va "vafo"ning Sharq tafakkuridagi konseptual o'rni aniqlashtirildi. Tahlillar davomida ushbu tushunchalarning ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) ma'no qatlamlari o'rtasidagi munosabat ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar natijasida "sadoqat" va "vafo" tushunchalari Sharq tafakkurida inson komilligining yaxlit modelini ifodalovchi integrativ axloqiy tizim sifatida shakllangani aniqlandi. "Sadoqat" insonning qalbiy rostligi, niyat pokligi va e'tiqoddagi barqarorligini bildirsa, "vafo" ushbu ichki holatning amaliy faoliyat, ijtimoiy munosabat va ahdga sodiqlikdagi tashqi ko'rinishini namoyon qiladi. Shu jihatdan ular sabab–natija, ildiz–meva munosabatida bo'lib, birining mavjudligi ikkinchisini taqozo etadi.

Lingvokulturologik jihatdan qaralganda, "sadoqat" va "vafo" tushunchalari Sharq madaniyatida oddiy leksik birlik emas, balki axloqiy-falsafiy konsept sifatida shakllangan. Ular insonning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi estetik model vazifasini bajaradi. Alisher Navoiy ijodida sadoqat do'stlik va jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qilinsa, Fuzuliy ijodida vafo insonning ma'naviy pokligi va muhabbatdagi sobitligini ifodalovchi yuksak axloqiy ideal darajasiga ko'tariladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "sadoqat" tushunchasi ko'proq ichki ma'naviy holat bilan bog'liq bo'lsa, "vafo" ushbu ichki rostlikning amaliy va

ijtimoiy ifodasini anglatadi. Shu sababli ular birgalikda qo‘llanganda insonning ichki va tashqi komilligi haqidagi mukammal tasavvur yuzaga keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “sadoqat” va “vafo” tushunchalari Sharq falsafiy-estetik tafakkurida inson komilligining yaxlit modelini ifodalovchi konseptual birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular alohida holda mustaqil ma’no bera oladigan, biroq birgalikda qo‘llanganda ichki va tashqi borliqni uzviy bog‘lovchi mukammal axloqiy tizimni shakllantiradigan kategoriyalardir.

Sadoqat insonning qalbiy rostligi, niyat pokligi va e’tiqod mustahkamligini ifodalasa, vafo ayni shu ichki haqiqatning ijtimoiy-amaliy maydondagi izchil tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ular o‘zaro sabab–natija, ildiz–meva munosabatida bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari “sadoqat” va “vafo” tushunchalari Sharq ma’naviy merosida oddiy sinonimik birlik emas, balki insonning ichki va tashqi kamolotini uyg‘unlashtiruvchi axloqiy-estetik tizim sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Mazkur tushunchalar bugungi kunda ham jamiyatdagi ishonch, ma’naviy poklik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rog‘ib al-Isfahoniy. *Mufradot alfāz al-Qur’on* / tahqiq: Safwon Adnon Dawoodi. – Damascus: Dar al-Qalam, 1992. – 474–475-betlar.
2. “Qur’oni karim.” At-Tavba surasi (9), 119-oyat.
3. “Qur’oni karim.” Ahzob surasi (33), 35-oyat.
4. “Qur’oni karim.” Ahzob surasi (33), 23-oyat.
5. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. *Sahih al-Buxoriy*. – “Kitab al-Adab”, hadis raqami: 6094.
6. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. *Sahih al-Buxoriy*. – “Kitab al-Adab”, hadis raqami:78.
7. G‘azzoliy, Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad. *Ihyo ulumiddin*. – Bayrut: Dar al-Ma‘rifa (yoki Dar al-Kutub al-‘Ilmiya), 1999. – 4-jild. – 245-bet.
8. Ibn Taymiyya. *Majmu‘ al-Fatovo*. – Ar-Riyod: Dor ‘Alam al-Kutub, 1995. – 7-jild. – 284–286-betlar.
9. Navoiy, Alisher. *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 141-bet.
10. Jubron Mas‘ud. *Ar-Roid: arabcha lug‘at*. – Bayrut: Dor al-‘Ilm li-l-Maloyin, 1967.
11. Majma‘ al-Lugha al-‘Arabiyya. *Al-Mu‘jam al-Wasīt*. – Qohira: Dor al-Ma‘orif, 1960. – “Wafā” moddasi.
12. Al-Javhariy, Ismoil ibn Hammad. *As-Sihah fi al-lug‘a*. – Bayrut: Dor al-‘Ilm li-l-Maloyin, zamonaviy nashr. – “Wafā” moddasi.
13. Rido, Ahmad. *Mu‘jam matn al-lug‘a*. – Bayrut: Dor Maktabat al-Hayot, 1958–1970. – “Wafā” moddasi.
14. Ma‘luf, Luis. *Al-Munjid fi al-lug‘a va al-a‘lom*. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1908 (va keyingi nashrlar). – “Wafā / Wafā’” moddasi.
15. Süleyman Uludağ. *Tasavvuf Terimleri Sözlüğü*. – Istanbul: Marifet Yayınları, 1991. – 516-bet.
16. “Qur’oni karim.” Baqara surasi (2), 40-oyat.
17. Mas‘ud, Jibron. *Mu‘jam ar-Roid*. – Bayrut: Dor al-‘Ilm li-l-Maloyin, 1964. – “Wafā” moddasi.